

UDK 7.0.741.744

“TEZ QALAMCHIZGI JARAYONIDA KUZATUVCHANLIK VA TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI”**Suyunov Navro‘z Alisher o‘g‘li***Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi, 180100, Qashqadaryo viloyati,**Qarshi shahar E-mail: navruz.suyunov.n@gmail.com*

Annotatsiya: *Tasviriy san‘at ta‘limida talabalarda kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish muammosi dolzarb masalalardan biridir. Tez qalamchizgi mashqlari qisqa vaqt ichida obrazni idrok qilish va uni ifoda etishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqolada tez qalamchizgi jarayonida kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Maqolada tezkor mashqlar orqali badiiy tafakkurni kuchaytirish va talabalarda ijodiy yondashuvni shakllantirish mavzusi yoritilgan.*

Maqolaning maqsadi — tez qalamchizgi mashqlari jarayonida kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini o‘rganishni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, taqqoslash va amaliy mashg‘ulotlarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Eksperimental ishlar Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi talabalari bilan o‘tkazildi. Talabalarning faoliyati kuzatildi va nazorat hamda tajriba guruhlar natijalari taqqoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijodiy yondashuv asosida tashkil etilgan tez qalamchizgi mashqlari talabalar kuzatuvchanligini oshirdi, tasavvurni kengaytirdi va obrazli tafakkurni rivojlantirdi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika talabalarni erkin chizishga, tezkor fikrlashga va ijodiy yechim topishga yo‘naltirdi.

Maqola tez qalamchizgi mashqlarini samarali tashkil etishning kompleks tadqiqotiga bag‘ishlangan. Unda kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish muammolari ochib beriladi. Alohida e‘tibor tezkor mashqlarning ta‘lim jarayonidagi metodik ahamiyatiga va ularning talaba shaxsini ijodiy rivojlantirishdagi rolga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Ijodiy yondashuv, Badiiy tafakkur, Obrazli fikrlash, Tasavvur rivoji, Kuzatuvchanlik, Tezkor mashqlar, San‘at ta‘limi metodikasi, Grafik ko‘nikmalar, Innovatsion pedagogika, Amaliy san‘at mashg‘ulotlari*

KIRISH**1.1. Muammolarning dolzarbligi**

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda tasviriy san‘at ta‘limida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning kuzatuvchanligi va tasavvur qobiliyatini oshirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tez qalamchizgi mashqlari bu jarayonda samarali vosita bo‘lib, qisqa vaqt ichida shakl, proporsiya va harakatni ifodalash imkonini beradi.

Bunday mashqlar nafaqat texnik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash va estetik idrokni kuchaytiradi. Bu muammo nafaqat bizning mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham ahamiyatga ega, chunki zamonaviy san‘at

ta'limida kreativ fikrlashni rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash global vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

1.2. Muammoga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili

Xorijiy nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tez qalamchizgi mashqlari san'at pedagogikasida kuzatuvchanlikni oshirish, obrazli tafakkurni rivojlantirish va talabalarni erkin ijodiy izlanishga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, G'arb olimlari tezkor sketching mashqlarini talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishning samarali metodlaridan biri sifatida ta'kidlaydi.

Mahalliy adabiyotlar tahlili quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi: O'zbek san'at ta'limida chizmachilik va tasviriy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, tez qalamchizgilar orqali kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish masalasi hali yetarli darajada yoritilmagan.

Mahalliy tadqiqotchilar asosan realistik tasvirlash, akademik mashqlarni metodik asoslash masalalariga ko'proq e'tibor qaratganlar. Muammoga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili quyidagi bo'shliqlarni aniqlashga imkon berdi: tez qalamchizgi mashqlarining ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishdagi roli yetarlicha ilmiy asoslanmagan, ularni samarali metodik tizimga joylashtirish masalasi esa hanuzgacha to'liq ishlab chiqilmagan.

1.3. Muammolarni o'rganish holatidagi bo'shliqlarni aniqlash

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'pgina tadqiqotlar talabalarning texnik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Biroq tez qalamchizgilarda kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa mazkur muammoni chuqurroq tadqiq etishni talab etadi.

1.4. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu o'rganilmagan sohalar mazkur maqolaning maqsadini shakllantirishga imkon berdi – u ham bo'lsa, tez qalamchizgi mashqlari jarayonida kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ochib berishdir.

Maqolada ko'rsatilgan maqsadni amalga oshirish quyidagi tadqiqot vazifalarini hal qilish orqali amalga oshirildi:

- tez qalamchizgi mashqlarining nazariy asoslarini o'rganish;
- xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish;
- kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning samaradorligini aniqlash.

1.5. Maqola materiallarining nazariy va amaliy hissasi

Maqola materiallari nazariy jihatdan san'at pedagogikasida tez qalamchizgi mashqlarining kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirishdagi rolini asoslashga hissa qo'shadi. Amaliy jihatdan esa, talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish uchun samarali metodik tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot o'quv jarayoniga tatbiq etilishi orqali talabalarda ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga, san'at ta'limida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak yuqori malakali tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik va sohaviy tayyorgarligining asosini o'rganishga o'z ilmiy tadqiqotlari bilan N. F. Gonobolin, N. B. Kuzmin, V. A. Slastenin, N. N. Rostovsev, A. I. Sherbakov, S. I. Arxangelskiy, N. Y. Grishanovich va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy metodikasining asosiy qonun-qoidalari tasviriy san'at sohasi ustalari ijodi, ularning ilmiy-nazariy qarashlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllangan tajribalar asosida belgilangan. Ushbu masalaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar orasida N. N. Rostovsev, G. V. Beda, V. S. Kuzin, Ye. V. Shoroxov, N. N. Volkov, V. P. Zinchenko, Ye. I. Ignatyev, V. K. Lebedko, A. Lilov, L. G. Medvedev, L. A. Ivaxnova, A. P. Yashuxin, A. Ye. Terentyev va boshqa qator badiiy-pedagogik ta'lim mutaxassislarning ilmiy ishlari va xulosalari alohida e'tiborga loyiqdir.

Shuningdek, mazkur tadqiqotimiz belgilangan masalalarni yechishda A. G. Yegorov, M. F. Ovsyannikov, A. I. Burov, V. K. Skatershikov, V. V. Vanslov, A. A. Dmitriyeva, G. B. Minorvin, V. A. Suxomlinskiy, Ye. I. Monoszon, N. I. Boldirev, B. T. Lixachev, B. G. Ananyev, L. S. Vigotskiy, Ye. I. Ignatyev, V. I. Kireyenko, B. F. Lomov, N. N. Volkov, B. M. Teplov, P. M. Yakobson kabi ilg'or faylasuflar, san'atshunoslar, pedagog va psixologlarning oliy ta'lim tizimida pedagogika, metodika va badiiy ta'lim sohasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlariga tayangan holda olib boriladi.

3. MATERIALLAR VA METODLAR

2.1. Tadqiqot chegaralarini ta'riflash. Ushbu tadqiqotning eksperimental chegaralari tasviriy san'at ta'limida tez qalamchizgi mashqlari jarayonida talabalarda kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash bilan belgilanadi. Tadqiqot amaliy jihatdan Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishidagi 2–3-bosqich talabalari o'rtasida olib borildi.

2.2. Tadqiqot savollari, gipoteza. Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi tadqiqot savollari shakllantirildi:

- Tez qalamchizgi mashqlari talabalarda kuzatuvchanlikni qanchalik rivojlantiradi?
- Ushbu mashqlar talabalarning tasavvur va obrazli tafakkurini rivojlantirishda qanday rol o'ynaydi?
- Tez qalamchizgi metodikasi ta'lim samaradorligini oshirishda qanchalik foydalidir?

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar tez qalamchizgi mashqlari ijodiy yondashuv asosida tashkil qilinsa, u holda talabalarda kuzatuvchanlik, tasavvur va obrazli tafakkur sezilarli darajada rivojlanadi.

2.3. Tadqiqot metodlari va usullarini tanlash asoslari.

Yetakchi metod sifatida pedagogik kuzatuv, taqqoslash, suhbat, eksperiment, test sinovlari va amaliy mashg'ulotlarni tahlil qilish tanlandi. Bu metodlarni tanlash sababi shundaki, ular talabalarning individual rivojlanish dinamikasini o'lchash, guruhlar o'rtasida taqqoslash qilish va metodikaning samaradorligini isbotlash imkonini beradi.

2.4. Tadqiqotning eksperimental bazasi va uning tanlanish asoslari.

Tadqiqotning eksperimental bazasi sifatida Shahrisabz davlat pedagogika instituti tanlandi. Ushbu bazani tanlash sabablari: institutda tasviriy san'at sohasida ixtisoslashgan talabalar mavjudligi, ularning chizmachilik va ijodiy faoliyatga qiziqishi yuqori bo'lishidir. Tadqiqotda ishtirok etgan kontingent 60 nafar talaba bo'lib, ular nazorat (30 nafar) va tajriba (30 nafar) guruhlariga bo'lindi. Tadqiqot ishtirokchilarini tanlash sababi — ularning tasviriy san'at mashg'ulotlarida faol qatnashishi va tezkor mashqlarga tayyorlik darajasi.

Eksperiment quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

- Birinchi bosqich – diagnostika: talabalarning boshlang'ich kuzatuvchanlik va tasavvur darajasini aniqlash.
- Ikkinchi bosqich – metodikani joriy etish: tajriba guruhida tez qalamchizgi mashqlari asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.
- Uchinchi bosqich – yakuniy bosqich: natijalarni baholash, nazorat va tajriba guruhlarini taqqoslash, xulosalar chiqarish.

Bosqichlarning jami tizimli tarzda ta'minlandi va har birida sifat ko'rsatkichlari qayd etildi. Baholash mezonlari sifatida kuzatuvchanlik darajasi, tasavvur kengligi, obrazli tafakkur va tezkor chizish ko'nikmalari olindi. Ushbu mezonlar test sinovlari, amaliy topshiriqlar va o'qituvchi tomonidan kuzatuvlar orqali tekshirildi.

2.5. Eksperimentning borishi va uning o'tkazilish shartlari.

Eksperiment uch oy davomida olib borildi. Nazorat guruhi odatiy uslubda darslarni davom ettirdi, tajriba guruhida esa tez qalamchizgi mashqlari ijodiy yondashuv asosida qo'llandi. Mashg'ulotlar individual, guruhiy va frontal shakllarda olib borildi. Eksperiment o'tkazilishida o'quv auditoriyalari, san'at jihozlari, grafik dasturlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, talabalar uchun qulay ijodiy muhit ta'minlandi.

Maqoladagi eksperiment bosqichlarining mantiqiga ko'ra, tez qalamchizgi mashqlari asosida ishlab chiqilgan metodika talabalarda kuzatuvchanlik, tasavvur va obrazli tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Maqolada ishlab chiqilgan ijodiy yondashuvga asoslangan tez qalamchizgi metodikasi badiiy tafakkurni shakllantirish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratdi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika quyidagi natijalarga erishishga imkon berdi: talabalar kuzatuvchanligi 28% ga, obrazli tafakkuri 24% ga, tezkor chizish qobiliyati esa 30% ga oshdi.

Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi:

- Tayyorgarlik bosqichi – talabalarning boshlang'ich darajasini aniqlash uchun diagnostika ishlari o'tkazildi. Natijada, kuzatuvchanlik va tasavvur ko'rsatkichlari o'rtacha darajada ekani aniqlandi.
- Asosiy bosqich – tajriba guruhida tez qalamchizgi mashqlari ijodiy yondashuv asosida qo'llandi. Bu davrda talabalar ko'z o'ngida tasvirni tez idrok qilish va uni qog'ozga ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirdilar.
- Yakuniy bosqich – nazorat va tajriba guruhlar natijalari taqqoslandi. Tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Tadqiqot doirasida talabalarning kuzatuvchanligi va tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodika ishlab chiqildi. Mazkur metodika ijodiy yondashuv, amaliy mashqlar va mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga olib, talabalar jarayonga faol, qiziqarli va erkin ishtirok etishlariga imkon berdi.

Rasmdagi natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida kuzatuvchanlik va tasavvur ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich barqaror o'sib bordi. Jadvaldagi natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida badiiy tafakkurni rivojlantirish samaradorligi nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori. Ushbu natijalar tez qalamchizgi metodikasining samaradorligini isbotlaydi va uni tasviriy san'at ta'limida keng qo'llash mumkinligini tasdiqlaydi.

4. MUHOKAMA

Maqoladagi natijalarni umumlashtirib aytganda, tez qalamchizgi mashqlari talabalarda kuzatuvchanlik va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Maqolada taklif etilgan ijodiy yondashuv asosidagi tez qalamchizgi metodikasining samaradorligi eksperiment natijalari orqali isbotlandi. Taklif etilgan metodika samaradorligi tajriba guruhining ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgani orqali tasdiqlandi.

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning oldingi natijalari bilan qisman mos keladi, biroq ba'zi jihatlarda farq qiladi. Masalan, xorijiy mualliflar tezkor sketch mashqlarining ijodiy tafakkurga ta'sirini ko'proq ta'kidlagan bo'lsalar, ushbu tadqiqotda kuzatuvchanlik va tasavvurni rivojlantirish ham alohida ilmiy-metodik asos sifatida yoritildi. Olingan natijalar ilmiy munozarada Rostovsev, Bakushinskiy va Eisner kabi olimlar qarashlari bilan bahslashish imkoniyatini beradi.

Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, tez qalamchizgilar faqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi, ijodiy tafakkurga ta'siri cheklangan. Ammo ushbu tadqiqot natijalari bunday qarashlar bilan to'liq kelishmaydi, chunki kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurning rivojlanishi aniq eksperimental tarzda isbotlandi. Mazkur tadqiqotning oldingi tadqiqotlardan ajralib turuvchi xususiyati shundaki, unda tez qalamchizgi mashqlari faqat chizmachilik ko'nikmasi emas, balki talabalarning tasavvur, kuzatuvchanlik va ijodiy tafakkurini birgalikda rivojlantiruvchi kompleks metodika sifatida taklif etildi.

5. XULOSA

5.1. Tadqiqotning qisqa yakunlari

Maqolada xulosa qilinadi: tez qalamchizgi mashqlari talabalarda kuzatuvchanlik, tasavvur va obrazli tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida kuzatuvchanlik darajasi, ijodiy tasavvur kengligi va tezkor chizish ko'nikmalari nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori bo'ldi. Bu esa gipoteza to'liq tasdiqlanganini ko'rsatadi.

5.2. Tavsiyalar

Muallif tomonidan taklif etilgan tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- Tez qalamchizgi mashqlarini tasviriy san'at ta'limi dasturlarida muntazam qo'llash;

- Mashg'ulotlarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etib, talabalarni erkin va tezkor chizishga rag'batlantirish;
- Kuzatuvchanlik va tasavvur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan mashqlar tizimini yaratish;
- Tez qalamchizgilarni zamonaviy texnologiyalar va grafik dasturlar bilan uyg'unlashtirish;
- O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, yangi tajribalarni ta'lim jarayoniga joriy etish.

ADABIYOTLAR:

- 1. Booth, J. W., Taborda, E. A., Ramani, K., Reid, T. (2016c). Interventions for teaching sketching skills and reducing inhibition for novice engineering designers. *Design Studies*, 43, 1–23. <https://doi.org/10.1016/j.destud.2015.11.002>
- 2. Istead, L., Istead (2022d). A simple, stroke-based method for gesture drawing. *Virtual Reality Intelligent Hardware /Xuni Xianshi. Yu.Zhineng.Yingjian*, 4(5), 381–392. <https://doi.org/10.1016/j.vrih.2022.08.004>
- 3. Rieger, K. L., Chernomas, W. M., McMillan, D. E., Morin, F. L. (2020). Navigating creativity within arts-based pedagogy: Implications of a constructivist grounded theory study. *Nurse Education Today*, 91, 104465. <https://doi.org/10.1016/j.nedt.2020.104465>
- 4. Chappell, K., Hetherington, L., Keene, H. R., Wren, H., Alexopoulos, A., Ben-Horin, O., Nikolopoulos, K., Robberstad, J., Sotiriou, S., Bogner, F. (2019). Dialogue and materiality/embodiment in science|arts creative pedagogy: Their role and manifestation. *Thinking Skills and Creativity*, 31, 296–322. <https://doi.org/10.1016/j.tsc.2018.12.008>
- 5. Almukhambetov, B., Tanirbergenov, M., Nebessayeva, Z. (2015) The application of figurative arts' capabilities in the Art-Pedagogical activity of a teacher. *Procedia: Social Behavioral Sciences*, 197, 1525–1529. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.1056>